




Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

10-dekabr O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi qabul qilingan kun

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

*Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!*

Naqorat:

*Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!*

*Bag'ri keng o'zbekning ochmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!*

Naqorat:

*Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!*

Abdulla Oripov so'zi

Shoxsanam DAVRONOVA,

BuxDU, o'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, f.f.d.

Zilola AMONOVA,

BuxDU, o'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, f.f.d.

SAYYOR SYUJETLI DOSTONLAR TADQIQI

Annotatsiya: o'zbek yozma adabiyotidagi "Chor darvesh", "To'tinoma", "Ra'no va Zebo", "Yusuf va Zulayho" kabi sayyor syujetli dostonlar islomiy-ilohiy manbalar hamda xalq og'zaki badiiy ijodi janrlaridan keng va ijodiy foydalangan holda yaratilgan asarlardir. Murakkab va qorishiq ijodiy uslubda yaratilgan bunday yo'nalishdagi badiiyat durdonalari folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sirning nodir namunalari hisoblanadi. Maqolada adabiyotshunos olim Shavkat Hayitovning "Sayyor syujetli dostonlar – adabiy manba" nomli 70230301 – matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi uchun "Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti" fanidan tayyorlangan o'quv qo'llanma tavsifi va tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: sayyor syujet, "Chor darvesh", "To'tinoma", "Ra'no va Zebo", "Yusuf va Zulayho", adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik.

Аннотация: в узбекской письменной литературе широко и творчески используют исламско-богословские источники и жанры народного творчества эпосы с путевыми сюжетами «Чор Дервеш», «Тоттинома», «Ра'на ва Зебо», «Юсуф ва Зулайхо». Созданные в сложном и смешанном творческом стиле художественные шедевры этого направления являются редкими примерами связи и взаимодействия фольклора и письменной литературы.

Это эпосы с путевым сюжетом, которые изучались рядом ученых. В статье дается описание и анализ учебного пособия «Практика работы с литературными источниками», подготовленного литературоведом Шавкатом Хаитовым для магистров по направлению «Текстология и литературное источниковедение».

Ключевые слова: подвижный сюжет, «Чор Дервиш», «Тоттинома», «Рана и Зебо», «Юсуф и Зулайхо», Практика работы с литературными источниками, Текстология и литературное источниковедение.

Annotation: in Uzbek written literature, epics with traveling plots such as "Chor Dervesh", "Totinoma", "Ra'na va Zebo", "Yusuf va Zulayho" are widely and creatively using Islamic-theological sources and genres of folk art. are created works. Artistic masterpieces of this direction, created in a complex and mixed creative style, are rare examples of communication and interaction between folklore and written literature. The article provides a description and analysis of the study guide "Practice of Working with Literary Sources" prepared by the literary scholar Shavkat Hayitov for the second-level Masters of Textology and Literary Source Studies, "Sayyor Suietli Dostonan - Literary Source" 70230301.

Key words: mobile plot, "Chor Dervish", "Totinoma", "Ra'na and Zebo", "Yusuf and Zulayho", Practice of working with literary sources, Textual studies and literary source studies

Ma'lumki, jahon ilm-fani va texnikasi taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan mamlakatimizning kelajagi intellektual savodxon, yuqori bilim va tajribaga ega, tadbirkor, ma'naviyatli, madaniyatli yoshlarga ehtiyojmand. Shu boisdan ham turli mutaxassislik doirasida chuqur bilim berishga asoslangan talaba-yoshlarning iqtidorli, ma'naviy jihatdan yetuk va salohiyatli bo'lib yetishishlari uchun xizmat qiladigan darslik va qo'llanmalarga zarurat har qachongidan ham yuqori deyish mumkin.

Mamlakatimizda o'qitish tizimiga katta e'tibor qaratilayotgan bir paytda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalarni takomillashtirish borasidagi amaliy vazifalarning muhim qismlaridan biri sifatida talaba va magistrantlarning bilim, ko'nikma va salohiyatlarini o'stirishga qaratilgan darslik va qo'llanmalar yaratish, bu boradagi ishlarni takomillashtirish

masalasini alohida ta'kidlash lozim. Bu borada Buxoro davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilayotgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Mazkur oliygohda filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bilan birgalikda, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ta'lim yo'nalishidan ham saboq beriladi.

Ta'kidlash lozimki, mustaqillikka erishilgach, jonajon yurtimizda adabiy manbalarni asl variantda o'qish va o'rganish, joriy yozuvimizga o'girish, nashriy variantlarini qiyoslab, tafovutli o'rinlarini aniqlash va asliy matn bilan solishtirish ilmiy-adabiy hayotning alohida sohasi sifatida maydonga chiqdi. Ayniqsa, muhtaram Prezidentimizning 2017- yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar manbashunoslik va matnshunoslik sohasiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi va uni davlat dasturi darajasiga ko'tardi.

Shu munosabat bilan 2018-2019-o'quv yilidan boshlab mamlakatimizdagi oliy o'quv yurtlariga Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi bo'yicha magistrantlar o'qishga qabul qilindi. Shu jumladan, Buxoro davlat universiteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida negizida ham Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi bo'yicha magistratura o'z faoliyatini boshladi. Mazkur yo'nalish magistrantlari "Adabiy manba bilan ishlash amaliyoti" dan saboq oladi. Mazkur fanni o'qitishda amaliy yondashuv bilan birgalikda nazariy jihatlariga ham e'tibor qaratish zarur. Magistrantlarning adabiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim qismlaridan yana biri sifatida ularni ilmiy tadqiqotlar ustida ish olib borish, badiiy va ilmiy manbalarni tahliliy o'rganish malakalarini oshirish bilan bog'liq jihatning ahamiyatini alohida ta'kidlash mumkin.

Ma'lum bir manba asosida mumtoz qo'lyozma yoki toshbosma bilan ishlashda o'ziga xos bo'lgan umumiy jihatlarini o'rganish juda muhimdir. Yana mumtoz matnlarni o'zaro qiyosiy o'rganish ham ahamiyatli jihatlardan sanaladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari orasida sayyor syujetli asarlar ko'plab uchraydi. Folklorda yaratilgan sayyor syujetlar yozma adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Jumladan, o'zbek yozma adabiyotidagi "Chor darvesh", "To'tinoma", "Ra'no va Zebo", "Yusuf va Zulayho" kabi sayyor syujetli dostonlar islomiy-ilohiy manbalar hamda xalq og'zaki badiiy ijodi janrlaridan keng va ijodiy foydalangan holda yaratilgan asarlar sirasiga mansub sanaladi. Mazkur sayyor syujetli dostonlarni o'rganish va ulardagi yuksak axloq bilan bog'liq g'oyalardan yosh avlod tarbiyasida foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Aytilganlar nuqtayi nazaridan O'zbek tili va adabiyotikafedrasiprofessori, f.f.d. Sh.A.Hayitovning "Sayyor syujetli dostonlar – adabiy manba" nomli o'quv qo'llanmasi adabiy manbalarni qiyosiy o'rganish va tatbiq qilishda ahamiyatli kitoblardan bo'lib, dolzarblik kasb etadi. Ushbu kitob 70230301 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi ikkinchi bosqich magistrantlari uchun "Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti" fanidan o'quv qo'llanma sifatida yaratilgan bo'lib, unda badiiy matnning mukammal va maqsadga muvofiq tahlili va ilmiy talqinini amalga oshirish bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalar ko'zda tutilgan. O'quv qo'llanmada "Chor darvesh" asarining qo'lyozma manbalari va matniy tadqiqi, "To'tinoma"ning

g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, "Ra'no va Zebo" dostonida hikoyatlarning o'rni, "Yusuf va Zulayho" Hilola Safarova talqinida kabi badiiy asarlar va ular orasidagi mushtarak xususiyatlar bir talay misollar yordamida asoslab berilgan hamda mazkur asarlar orasidagi o'xshashliklarga e'tibor qaratilgan.

Kitobda sayyor syujetli dostonlarning adabiyotshunos olim Toji Qorayev tomonidan ilmiy talqin etilishi masalasiga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, olimning matnshunoslik va manbashunoslik yo'nalishidagi faoliyatida muhim o'rin tutgan Mullo Qurbon Xiromiyning hayoti va adabiy merosini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotiga munosabat bildirilgan. Ayniqsa, olimning Xiromiy qalamiga mansub "Chor darvesh", "To'tinoma", "Ra'no va Zebo", "Yusuf va Zulayho" dostonlarining qo'lyozma manbalarini aniqlab, ilmiy tavsif qilinganligi diqqatga molik ekanligi qayd etilgan.

Qo'llanmada "Chor darvesh" asari ilk marta Xusrav Dehlaviy tomonidan yaratilganligi ta'kidlangan bo'lib, adabiyotshunoslikda bu masala borasida o'z qarashlarini bayon etgan olimlardan S.Ayniy, T.Qorayev, I.Mo'minov, O.Sharafiddinov, V.Zohidov qarashlariga ham munosabat bildiriladi.

Olimning fikriga ko'ra jahon adabiyotda Naxshabiy, Qodiriy, Haydariy, Latifiy kabi atoqli namoyandalar "To'tinoma" syujeti asosida yangi doston yaratganlar. Bu an'ana Mullo Qurbon Xiromiy tomonidan davom ettirilgan bo'lib, ijodkor o'zining mukammal, badiiy jihatdan o'ziga xos uslubdagi asarini yaratgan.

Xiromiy dostonida mazmun va shakl mutanosibligiga chuqur e'tibor qaratilgan, ya'ni voqea-hodisalar bayoni ijodkorning uslubiy izlanishlari, badiiy-tasviriy vositalardan mohirona foydalanishi asosida shakliy-mazmuniy jihatdan boyigan. Qo'llanmada ham asarning g'oyaviy pishiqligi, badiiy bo'yoqdorligi adibning doston matni ustida uzoq ishlaganligidan dalolat berishi ta'kidlanadi.

Sh.Hayitov "To'tinoma"ning bir qancha qo'lyozma nusxalari borligini aniqlaganligini kuzatish mumkin. Jumladan, hozirgi vaqtda professor Toji Qorayevning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan Buxoro qog'oziga nastaliq xatida Xiromiyning o'g'li Mullo Zokir tomonidan ko'chirilgan nusxa. Shuningdek, shahrisabzlik xiromiyxon Fayzulla Maxsun, samarqandlik xiromiyxon Abdulhamid Po'lodiyning shaxsiy kutubxonasida ham asarning qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lganligi qayd etiladi. Kitobni yaratish jarayonida esa Sh.Hayitov asarning professor Toji Qorayev shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasidan foydalanganligini qayd etadi.

Olim tomonidan Mavlono Xiromiyning o'z ona tilida original "To'tinoma" yozish maqsadini ko'zda

tutganligini dostonning dastlabki sahifalaridanoq ilg'ab olish mumkinligi asoslashga kirishiladi. Chindan ham asar ijodkorning ona tilida yaratilganligi uning badiiy jihatdan mukammalligiga sabab bo'lgan, deyish mumkin.

Shuningdek, kitobda "To'tinoma"ning qoliplovchi hikoyasi mag'zida vafo va sadoqat g'oyasi turishi dostonning keyingi sahifalaridan ham anglashilib turadi. Olim To'ti tomonidan aytilgan hikoya, masal va qissalarda aks etgan masalalarning deyarli barchasida shu g'oyaning qaysidir bir qirrasini aks etganligini qayd etadi.

Eng avvalo, kitobda To'ti tilidan aytilgan hikoyalarning g'oyaviy, tarbiyaviy jihatlariga diqqat qaratiladi. Shuningdek, asarning badiiy xususiyatlariga xos xarakterli jihatlar, shoirning obraz yaratish, badiiy-tasviriy vositalardan foydalanish mahorati bilan bog'liq jihatlar misollar asosida dalillanadi. Jumladan, Mavlono Xiromiyning tongni obraz sifatida tasvirlagani, shaxslantirgani bilan bog'liq qarashlar bayon etiladi. Sh.Hayitov Xiromiy asarini tahlilga tortar ekan, o'tmishda va keyingi davrlarda ijod qilgan bir qancha shoir va adiblar ijodiga murojaat qiladi, ular asarlarini "To'tinoma" bilan qiyoslashga, ijodkorlarning g'oyaviy qarashlaridagi mushtaraklik o'ziga xoslikni aniqlashga harakat qiladi. Jumladan, Kaykovus, Shayx Sa'diy, Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy kabilarning asarlarida ham ahamiyatga molik qarashlari keng istifoda etiladi.

Shuningdek, "To'tinoma" tahlilida olimning o'z qarashlarini nodir manbalar Qur'oni Karim, hadislarida o'z aksini topgan asoslar bilan mustahkamlab borganligi ham diqqatni tortadi.

Ta'kidlash joizki, "Ra'no va Zebo" dostoni Mullo Qurbon Xiromiy ijodining kamolot bosqichida yaratilgan. Bu dostonida sayyor syujetdan vosita sifatida foydalanish va insonparvarlik g'oyasini yoritish o'z takmilini topgan. "Ra'no va Zebo" Xiromiy iste'dodining nozik qirralarini namoyon etadi. Masalaga ana shu jihatdan yondashganda ushbu asarning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi o'rnini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Doston mundarijasidan keng o'rin olgan qoliplovchi hikoyalarda xalqchil g'oyalarning pishiq ishlanishi shoirning xalq hayoti, mamlakat taqdiri bilan chuqur qiziqqanini ko'rsatadi. Dostonida ijtimoiy muammolar talabchanlik bilan ko'tarilgan, mamlakat obodligida shohning o'rnini va shaxsi masalasi har tomonlama asoslangan. Doston asosida adolatli davlat va sof insoniy muhabbatni ulug'lash g'oyasi yotadi. Bosh g'oyaga bog'liq holda ijtimoiy tenglik, ixtiyoriy nikoh, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini to'g'ri belgilash kabi ijtimoiy-axloqiy masalalar doston

markaziga qo'yilib, mahorat bilan yoritilgan. "Ra'no va Zebo" dagi qoliplanuvchi hikoyalar qoliplovchi hikoya mohiyatiga uyg'un. Qo'llanmada asar tahlili batafsil yoritilgan: "Qoliplovchi hikoyadagi mohiyat qoliplanuvchi hikoyalarda aniq voqea-hodisalar, obrazlar misolida rivojlantirilgan. Mavlono Xiromiy ifoda tarzida nafaqat muallaq qolgan biror hikoya, balki muallaq qolgan biron bir jumla yoki kalima ham yo'q. Qoliplovchi hikoyalar 11 ta bo'lib, ularning beshtasi Zebo, 5 tasi Malloh, bittasi Safdar tomonidan aytilgan. Qoliplanuvchi hikoyalarning asar syujeti oqimidan o'rin olishi Malloh qayiqda Zeboni olib qochgandan keyin boshlanadi. O'quv qo'llanmada hikoyalardan ayrimlarining g'oyaviy-estetik qimmatini ham yoritilgan.

Shuningdek, qo'llanmada sayyor syujetli dostonlar qatorida "Yusuf va Zulayho" dostoni bilan bog'liq mulohazalar ham o'z ifodasini topgan. Muallif mazkur asarning o'rganilish tarixiga ham e'tibor qaratgan: "Filologiya fanlari nomzodi H.Safarovaning tadqiqotlarida sayyor syujetli dostonning filologik tahlili XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlarida yashab ijod qilgan iste'dodli adib Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissayi Yusuf Siddiq alayhissalom" asari asosida amalga oshirilgan. Olima 72 qissadan iborat "Qissasi Rabg'uziy" tarkibidagi "Qissayi Yusuf Siddiq alayhissalom"ga mustaqil badiiy asar sifatida qaraydi va Yusuf-u Zulayho sayyor syujetini qiyosiy-tipologik asosda chuqur tadqiq qiladi".

Qo'llanmada H.Safarova tadqiqoti bilan birgalikda taniqli olim T.Qorayevning tadqiqotlari ham qayd etib o'tilgan: "Tadqiqotda olim Xiromiyning faoliyati, asarlari, ularning manbalari, shoir ijodining ko'lamini, mavzu mundariyasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ayniqsa, olimning Xiromiy qalamiga mansub "Chor darvesh", "To'tinoma", "Ra'no va Zebo", "Yusuf va Zulayho" dostonlarining qo'lyozma manbalarini aniqlab, ilmiy tavsif qilgani e'tiborlidir". Adabiyotshunos olim Sh.Hayitov sayyor syujetli asarlar haqida batafsil to'xtalar ekan, Sharq mumtoz adabiyotida bu an'ana darajasiga ko'tarilganligiga ham e'tibor qaratgan.

Qo'llanmada mavzuni o'rganishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ayrim tavsiyalar ham berilgan. Shuningdek, qo'llanmada Xiromiyning shajarasi, yaratgan asarlari, "Chor darvesh" ning hindcha va forschacha variantlari bilan bog'liq jadvallar keltirilgan. Kitobda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, mavzuni mustahkamlash uchun savollar ham e'tibordan soqit qilinmagan. Qolaversa, kitob so'ngida ilova qilingan testlar ham magistrantlarning mazkur fan bo'yicha bilimlarini oshirishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Xolmo'min FAYZULLAYEV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori



NORMUROD NORQOBILOV NASRIDA REAL VOQELIK VA UNING BADIY TALQINI

Annotatsiya: maqola yozuvchi Normurod Norqobilovning "Dasht-u dalalarda" romaniga xos tasvir uslubining bir qirrasini – naturalistik tasvir masalasi talqiniga bag'ishlangan. Roman muallifi shu yo'sinda inson va tabiat muammosini qanday talqin etgani haqida fikr yuritilgan. Inson va tabiat tasvirida N.Norqobilovning naturalistik tasvir mahorati haqida xulosalar chiqarishga urinilgan.

Kalit so'zlar: roman, kompozitsiya, syujet, epizod, qahramon, obraz, naturalizm, epik tasvir, naturalistik tasvir, psixologik tasvir, epik kontrast, epik kolliziya, jonivor obrazi, fojeiy vaziyat.

Аннотация: статья посвящается вопросу натуралистического изображения, одной из своеобразной грани стиля изображения в романе «В степных полях» Н.Норкobilова. Автор размышляет о таком изображении проблемы человека и природы. Он делает выводы о мастерстве натуралистического изображения Н.Норкobilова на примере изображения человека и природы в произведении.

Ключевые слова: роман, композиция, эпизод, герой, образ, натурализм, эпическое изображение, натуралистическое изображение, эпический контраст, эпическая коллизия, живой образ, трагическая ситуация.

Annotation: the article is devoted to one of the aspects of the style of depiction in the novel "In the fields" by the writer Normurad Norkobilov - the interpretation of the problem of naturalistic imagery. This is how the author of the novel interprets the problem of person and nature. Attempts have been made to conclusions about N.Norkobilov's naturalistic imagery in the depiction of person and nature.

Keywords: novel, composition, plot, episode, hero, image, naturalism, epic image, naturalistic image, psychological image, epic contrast, epic collision, creature image, tragic situation.

Normurod Norqobilov nasrini o'qib-o'rganish, undagi tasvir yo'sinini sinchkov kuzatish yozuvchi uslubida naturalistik ifoda yetakchiligini ko'rsatadi. O'ylashimizcha, muallifning tabiat hodisalari, jonivorlar, tosh-tuproq, tog'-u toshlarni badiiy tasvirlashga moyilligi tabiiy holatda uni naturalistik tasvirga olib kelgan.

Naturalistik tasvir o'n to'qqizinchi asrda Fransiya paydo bo'lgan "naturalizm" adabiy oqimining yetakchi tasvir tamoyili bo'lib, unda narsa-hodisalarni tabiatda qanday bo'lsa shundayligicha tasvirlash poetik maqsadga aylantirilgan¹. "Natura" so'zi ham ildiziga ko'ra fransuzcha so'z hisoblanadi. Lug'aviy jihatdan "tabiat" degan ma'noni bildiradi. Bevosita tabiat va inson muammosini badiiy nasrga tatbiq etgan J.London, E.Seton-Tompson, Ch.Aytmatov, Sh.Xolmirzayev, T.Murod singari yozuvchilar aslida naturalizm oqimiga mansub sanalmaydilar. Ammo ularning ijodiy niyatlari, tabiat, nabotot, jamodotni borligicha ifodalashga bo'lgan urinishlari o'z-o'zidan naturalistik tasvirni yuzaga keltiradi². Nimaga deganda, tabiat qo'ynida erkin yurgan biron parranda, hashorat, kemiruvchi yoki jonivor sabr-bardosh,


matonat, muhabbat va tabiiy qiziqish bilan kuzatilmas ekan, u haqidagi asar to'laqonli chiqmaydi. Ularning qiyofasi, anatomik tuzilishi, instinktga asoslanuvchi harakati, psixologik holatlari sun'iy, to'qima tasvirni qabul qilmaydi. Yozuvchi xayoloti orqali birona element kiritisa ham, bunday tasvir elementi ortiqcha bo'lib qoladi. Shuning uchun tabiat haqida yozadigan yozuvchi birinchi navbatda tabiatni sevishi, tabiat kishisi bo'lib shakllanishi kerak, albatta.

Bu jihatlarning hammasi N.Norqobilov shaxsi, turmush tarzi, xarakterida mavjud deb o'ylaymiz. Uning uzoq yillar O'zbekiston teleradiokompaniyasida ishlagani, ishlash jarayonida yurtimizning o'nlab tabiat maskanlari haqida hujjatli filmlar tayyorlagani ma'lum. Shuning bilan birgalikda yozuvchining bolaligi ham tog'-u toshlar, dasht-u dalalarda kechgan. Cho'ponlar, ovchilar, tog' qorovullari faoliyatini kuzatish, ular bilan qadam baqadam yurish unda tabiatga mehr, uni sevish dardi, kuzatish uchun sabr-toqatning shakllanishiga zamin hozirlagan. Yozuvchining barcha asarlarida bu xususiyat yaqqol ko'rinadi. Jumladan, "Paxmoq", "Kapalak", "Changalzor iti", "Oq bo'yin", "Do'ngkalla", "Arazchi chumchuq", "Qora bo'ri", "Qoraquyun" asarlarini naturalistik tasvirning yuksak namunalari desak, xato qilmaymiz.

Ushbu maqolada biz yozuvchining "Dasht-u dalalarda" romanidagi "Qoraquloq" deb nom olgan tulki obrazining naturalistik tasvirlanishi haqida fikr yuritamiz.

¹ Қаранг: Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980; Қуროнов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004; Қуროнов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.

² Қаранг: Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ НМАКБТ, 2007.



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulkayrov
Alijon Safarov
Husniddin Norqulov
Odiljon Boynazarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan
Gulchexra Keldiyorova
Gulsanam Xolikulova
Komiljon Qarshiyev
Svetlana Umirova
Xolmo'min Fayzullayev
Nilufar Namazova
Dilbar Niyazova
Sayyora Halimova
Shaxnoza Yunusova
Nigoraxon Ro'zibayeva
Tadjixon Sabitova
Nigoraxon Ro'zibayeva

Axborot hamkorimiz:



Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Muharrirlar:

Bibimariyam RAHMONOVA
Shabnam G'ANIYEVA
Bonu DO'SMATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (90) 322-87-16.

e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Ilxom Siradjiev. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishdagi muammo va yechimlar.....3
Ozodaxon Kuchkarova. Oilada yaxshilik va yomonlik konsepti asosida farzandlarning shakllanishidagi mulohazalar.....5
Shoxsanam Davronova, Zilola Amonova. Sayyor syujetli dostonlar tadqiqi.....8
Xolmo'min Fayzullayev. Normurod Norqobilov nasrida real voqelik va uning badiiy talqini.....11
Ozodaxon Boltaboyeva. Is'hoqxon to'ra lbrat – zullisonayn shoir.....14

Tilshunoslik

Asqar Eshmuminov. O'zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasining o'rganilishi.....17
Shoxida Abdullayeva. Moliyaviy-iqtisodiy matnlarda semantik tarjima va tildagi o'zgarishlar.....20
Zoxira Xidraliyeva. Iqon shevasi leksikasining mavzuviy guruhlari.....24
Mahbuba Axatova. "Piri mug'on" birikmasining tasavvufiy she'riy manbalarda kelgan ma'nolari tahlili.....27
Dildor Eshmuratova. Ingliz bibliya iboralarining lingvistik xususiyatlari.....29

Adabiyotshunoslik

Dilbar Niyazova. Yozuvchi lisoniy shaxsining badiiy asardagi o'rni.....31
Muqaddas Tojiboyeva. Mo'minjon Toshqin ijodida tazkiranavislik an'anasi.....33
Jahongir Turdiyev. "Me'rojnom" asarining nasta'liq xatidagi nusxasi va uning matn

komponentlari.....36
Ro'ziqul Mustafoqulov. H. H. Niyoziy bolalar adabiyotining asoschisi.....38
Maxzuna Xamrayeva. Evidensiallik kategoriyasi hamda anaforik indeksal komponentlar ingliz va o'zbek tillari kesimida.....41

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Dilara Dospanova. Adabiyot o'qitish metodikasining dolzarb masalalari.....44
Mohigul Fozilova. Adabiyot darslarini o'qitishdagi mulohazalar.....46
Shaxnoza Kadirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachi-pedagoglarning ahamiyati.....48
Dilnoza Nosirova. Maktabgacha ta'limda harakatli o'yinlarni tashkil etish va ularni o'tkazishning ba'zi jihatlari.....50
Nasiba Xolbozorova. "Differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning istiqbollari (boshlang'ich talim yo'nalishi misolida)".....53
Nodira Safarova. Ispan tilini o'qitishda madaniy kontekstning ahamiyati madaniy materiallar orqali til o'rganishning samaradorligini oshirish.....56
Dilshodabegim Abdusattorova. Ertaklarni o'qitishda multimedia ilovalaridan foydalanish.....58
Xilolaxon Ergasheva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli savodxonligini rivojlantirish texnologiyalari.....61
Dilfuza Yuldasheva. Ingliz tili darslarida kommunikativ kompetensiyani

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir. <https://oak.uz/pages/4802>